www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

KARTOSHKANI SUG ‘ORISHDA DALA PASPORTI TUZISHNING SUG‘ORISH JARAYONIDAGI SAMARADORLIGI VA AHAMIYATI

(Farhod fermer xo‘jaligi misolida)

Jumanazarova Komila Sharofiddin qizi

Annotatsiyasi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, suv tejamkor sug’orish texnologiyalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan barqaror hosil olish bizning birinchi va asosiy maqsadimizdir. Shuni aytibham o’tishimiz joyizki mazkur texnologiyalarni qo’llashda davlatimizning o’zi bosh islohatchi bo’lgani mazkur sohaga bo’lgan e’tiborni belgilab beradi, ya’ni Respublikada suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishni 2022 yilda 478 ming gektarga yetkazish, shundan: 230 ming gektar tomchilatib, 28 ming gektar yomg‘irlatib, 2 ming gektar diskretli sug‘orish hamda 218 ming gektar maydonda lazerli uskunalar yordamida yerlarni tekislash belgilangan.ushbu yillik malumotlardan ham ko’rinib turibdiki tomchilatib sug’orish maydoni qolgan tejamkor sug’orish usullaridan kup ekanligi va etiborda ekanligi kurinib turibti.

Kirish. O‘zbekistonda 150 yildan buyon ekib yetishtirib kelinmoqda.

Mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda kartoshka yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham kartoshka “ikkinchi non” deb ataladi. Kartoshkachilikni rivojlantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi» farmoni ya’ni respublikani rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida “…qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, …” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4704-son 2020 yil 6 maydagi “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari[1] to‘g‘risida” (1-ilova) mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar kartoshkachilik sohasi oldida turgan muammoli vazifalarni yechishda xizmat qiladi.

Kartoshka Shimoliy qutbdan boshlab Kavkazorti, asosan Boltiq bo‘yi respublikalari, Markaziy qora tuproqli zona, Volga bo‘ylari, Boshqirdiston, Ural, Sibir va Uzoq Sharqda, shuningdek O‘rta Osiyo respublikalarida ekiladi.

Kartoshka dunyoning 156 ta mamlakatida 377 mln. tonna yalpi hosil yetishtiriladi. Kartoshkachilik rivojlangan mamlakatlar Xitoy, Rossiya, Hindiston Ukraina, AQSh, Germaniya, Polsha, Belorussiya, Gollandiya, Fransiya kabilar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **2022 yil 1 mart** kuni «Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» **PQ-144 sonli** Qarorini imzoladi.

Unga ko‘ra: Mazkur qarorda Respublikada suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishni 2022 yilda 478 ming gektarga yetkazish, shundan: 230 ming gektar tomchilatib, 28 ming gektar yomg‘irlatib, 2 ming gektar diskretli sug‘orish hamda 218 ming gektar maydonda lazerli uskunalar yordamida yerlarni tekislash belgilangan.

2023-yil 1-iyulgacha bo‘lgan muddatga chetdan olib kirilayotgan urug‘lik kartoshka bojxona bojidan ozod etilishi belgilab qo’yilgan. Mamlakatimizda iste’mol va urug‘lik kartoshka,

[1] https://lex.uz/uz/docs/-4806073

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

jumladan, uning super elita, elita avlodlarini yetishtirishga ixtisoslashtiriladigan tumanlar yuqorida ko‘rsatilgan qaror bilan belgilab berilgan.

Tog’ oldi hududlarida erta bahorgi kartoshkani suvni tejash texnologiyalaridan foydalangan holda sug’orish tartiblarini qo’llash orqali ularning o’sishi, rivojlanishi, hosildorligiga ijobiy ta’sirini aniqlashdir.

Tadqiqotimizning asosiy yangiliklaridan yana bir shundan iboratki biz tajreba utkazgan dalamizga tuproq namligini zamonaviy nam o’lchagich yani sensirli datchik urnatgan xolda dalani namlik darajasini aniq bilgan xolda suv berish vaqti va xajmini bilishga yordam derdi.

Sensirli datchigimizni urnatish sharti quydagichi:Ekin ekilgan joyni vertikal kovlab usimlik ildiz qatlami joylashadigan va rivojlanadigan qatlamga maxsus kabellar yordamida gorzantal qilib joylashtiriladi.Bu esa bizga usha qatlamdagi namlik miqdorini kursatib beradi. Biz ushbu malumotlarga tayangan xolda suv berish miqdori va vaqtini belgilashimiz mumkin.

Yana bir yangiligi shundan iboratki **Isroil** davlatida sinovdan o’tgan dala pasportini tadbiq qilish. (Suv tejamkor sug’orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlarda) Dala pasportini yuritishdan asosiy maqsad tajreba dalasida qilinga agrotexnik tadbirlar vaqti va xajmi, Suv berishlar vaqti xajmi va miqdorini aniq hisob kitobini yurtib borish imkoni borligi.

Ilmiy ahamiyatga molik qismlaridan biri shundan iboratki tomchilatib sug’orish tizimiga beriladigan suv hechqanday nasos agregatlarisiz to’g’ridan to’g’ri tabiiy buloqlardan yig’ilgan suniy qurilgan hovuzlardagi (Hovuzlar qurishdan asosiy maqsad bosimhosil qilish) suvlar uzatiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi.

Tadqiqot Toshkent viloyatining Bo’stonliq tumaniga qarashli Sedjak xududida olib borilgan va amalda qo’lanilgan, shuni aytib o’tish joyiz mazkur texnologiyalar nafaqat mazkur xududda balki viloyatning boshqa bir tog’ oldi hududlaridaham qo’llash mumkin, qonunda belgilab o’tilgan. Mazkur loyiha suvga bo’lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytira oladi deb ayta olamiz.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Tadqiqot Toshkent viloyatining Bo’stonliq tumaniga qarashli Sedjak xududi (Farxot fermer xo’jaligi)da kartoshkani tomchilatib sug’orish texnologiyasini joriy qilgandan so’ng olingan natijalar quyidagi malumotlarni isbotlab berdi.

1. Foydalanilgan aniq suv miqdori aniqlandi.
2. Berilayotgan og’itning o’simlikning aynan ildiz sestimalariga tug’ridan tog’ri begona osimliklardan ajratgan holda berish imkononi tug’uldi.
3. Keyingi yillarda o’simliklarning hosildorlik darajasini belgilash va uni o’zgartirish imkonini tug’dira oladigan ma’lumotlar ba’zasiga ega bo’lamiz, ya’ni berilayotgan suv va o’g’it miqdorini o’zgartirish orqali hosildorlik darajasiga ijobiy ta’sir qilish imkoniyati tug’uldi.
4. Odatda sug’orish uchun ishlatilgan suv miqdoriga nisbatan mazkur texnologiyadan foydalangan holda ishlatiladigan suv miqdori nisbatini aniq belgilagan holda soliq imtiyozlaridan foydalanildi.
5. Mazkur texnologiya o’simlikning ekishdan toki hosilini yig’ib olishgacha iqtisodiy samaradorlikni ta’minladi.

Biz keltirib o’tgan texnologiyalar Toshkent viloyati Bo’stonliq tumaniga qarashli Sedjak(Farxod f/x) hududida sinab ko‘rildi va ijobiy natijalarga erishildi.

Tadqiqot ob’ekti va predmeti hamda qo’llanilgan agrotexnik tadbirlar.

Toshkent viloyatining Bo’stonliq tumanida kartoshkani tomchilatib sug’orish amalyoti qo’llanilib kelinmoqda, jumladan Bo’stonliq kartoshkachilik markaziga qarashli 650 ga yer maydonida suv tejamkor sug’orish texnologiyalarini qo’llagan holda kartoshka yetishtirib kelinmoqda. Bo’stonliq tumaniga qarashli Sedjak xududida kartoshkani tomchilatib sug’orish texnologiyasi qollanilgan bo’lib mazkur joyni biz tadqiqot obekti sifatida tanlab kuzatish

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

ishlarini olib bordik. Tadiqot abektimiz “Farxod” f/x ning 2 ga maydonida olib borildi, mazkur maydonda oldingi yillardaham tomchilatib sug’orish texnologiyasidan foydalanib kelingan, tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqgan holda ajratib olingan 2 ga maydon sug’orish konturlariga bo’linib har bir kontur buyicha berilayorgan suvning hisobi (suv o’lchash qo’rulmasi “Rasxodamer”) olib borildi (1-rasm). Bizning tadqiqot maydonimmizdan tashqari fermer xo’jalik hududida tomchilatib va egatlab sug’oriladigan kartoshka ekilgan maydonlariham mavjud, biz bu maydonlardan nazorat maydonlari sifatida foydalanib kuzatuv ishlarini olib bordek. Kuzatishdan olingan natijalar dala jo’rnaliga qayd etilib muntazam nazorat maydonidagi holat bilan solishtirib borildi. bizning maqsadimiz kartoshkani tomchilatib sug’orish texnologiyasini takomilashtirgan holda tejaladigan suv, texnika xarajatlar, ishchi kuchi va buning natijasida olinadigan hosil miqdorining oshishini kuzatish.

Bu usul bilan sug‘orish rejimini o‘simlikning suvga bo‘lgan talabiga mos bo‘lishi ta’minlanadi. Tomchilatib sug‘orilganda boshqa sug‘orish usullariga nisbatan ekin va tuproq turiga qarab, 20-40 foiz suv tejaladi, moddiy resurslar, qo‘l mehnati, texnika xarajati kamayadi.

Tajriba dalasida o‘tkazilgan agrotexnik ishlar

1-jadval

№	Agrotexnik tadbirlar	Mudati
1	Kuzgi shudgorlash	5.11.2020
2	Baranalash (Atlas solish)	25-26.03.2021
3	Yerni o’g’itlash: 1.Kaliy (300 kg/ga) 2.Ammofos (500kg/ga)	28.03.2021
4	Ekish (Qizil scarlet navi, 3600 kg/ga)	30.03.2021
5	Gezagard preparat sepish (Begona o’tlarni rivojlanishini oldini olish, 1.6x300)	13.04.2021
6	Tomchilatib sug’orish uskunalarini o’rnatish	15.04.2021
7	Birinchi suv berish	16.04.2021
8	Tomchilatib sug’orish uskunalarini yig’ishirib olish	20.04.2021
9	Birinchi kultivatsiya (kartoshka o’simligi 8-10 sm o’sgandan) 1-texnikada va bir vaqtning uzida 2-texnika bilan qumlash (Bo’g’ziga tuproq tortish)	21.04.2021
10	Tomchilatib sug’orish uskunalarini qayta o’rnatish	23.04.2021
11	Ikkinchi suv	24.04.2021
12	Uchunchi suv	01.05.2021
13	Maxsus texnika yordamida bargidan oziqlantirish (kunning ikkinchi yarmida), texnika harakatlanadigan egatlardagi lentalar vaqtincha yig’ib olindi(32 ta egatdan 3 ta egatdagi lentalar)	06.05.2021
14	Tabiiy yomg’ir yo’gini kuzatildi	08-09.05.2021
15	To’rtinchi suv (KAC preparat 150 l/ga)	17.05.2021
16	Maxsus texnika yordamida hashoratlarga qarshi kurashish tadbiri (Kalarada qung’izi)	21.05.2021
17	Beshinchi suv	27.05.2021
18	Oltinchi suv (KAC preparat 200 l/ga)	04.06.2021
19	Maxsus texnika yordamida hashoratlarga qarshi kurashish tadbiri (Kalarada qung’izi)	08.06.2021

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

20	Yettinchi suv	20.06.2021
21	Sakkizinchi suv (texnik sug'orish)	27.06.2021
22	Tomchilatib sug'orish uskunalarini yig'ib olish	02.07.2021
23	Hosilni yig'ib olish (Ishchi kuchi yordamida)	03.07.2021

Isroil davlatida sinovdan o'tgan dala pasportini tadbiq qilish (5-jadval). (Suv tejamkor sug'orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlarda). Ushbu dala pasportini Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi "Farxod" fermer xo'jaligiga zamonaviy sug'orish texnologiyalaridan bo'lgan suv tejamkor sug'orish (tomchilatib sug'orish) usulidan foydalangan holda kartoshkaning "Qizil Scarlet R_1" navlaridan yoqori va barqaror hosil olish maqsadida qo'lladik.

O'simlikning butun xayotiy rivojlanish jarayoni shartli ravishda uch davrga bo'linadi:

1. O'simlikning unib chiqishdan to gullashgacha bo'lgan davri. Bunda asosan palak jadal o'sadi, shakllanadi, tuganaklar hosil bo'ladi.

2. O'simlikning gullashidan to palak sarg'ayishgacha bo'lgan davri. Bunda tuganaklar jadal o'sib rivojlanib shakllanadi.
3. O'simlikning palaklarini sarg'ayishdan to tabiiy qurib tuganaklarning pishishigacha bo'lgan davri. Bunda tuganaklarning o'sishi ikkinchi davrga nisbatan sust davom etadi.

Dala pasporti shakilantirish jadvali (1-marta suv berish)

5-jadval

					Suv berishning vaqti 2021 yil 16 aprel
Linya	**Suv ochilgan vaqti**	**Suv yopilgan vaqti**	**Suv berilgan vaqt**	**Klapinlar soni**	**Berilgan o'g'it miqdori**
A	09:00	15:00	6 soat	2	0 l/ga
B	15:30	21:30	6 soat	2	0 l/ga

O'simlikning unib chiqishdan to gullashgacha bo'lgan davri. Bunda asosan palak jadal o'sadi, shakllanadi, tuganaklar hosil bo'ladi. Ushbu davrda kartoshkaning o'sib rivojlanish hamda ildiz qatlamining suvga bo'lgan talabi katta emasligi,atmasfera yo'g'inlari mavjudligi, havoning namlik darajasi va tuproqning namligini hisobga olgan holda sug'orish vaqtini 6 soat tanlagan holda 300 m3 miqdorida suv berildi.

Dala pasporti shakilantiri jadvali (2-marta suv berish)

6-jadval

					Suv berishning vaqti 2021 yil 24 aprel
Linya	**Suv ochilgan vaqti**	**Suv yopilgan vaqti**	**Suv berilgan vaqt**	**Klapinlar soni**	**Berilgan o'g'it miqdori**
A	07:00	14:00	7 soat	2	0 l/ga
B	14:30	21:30	7 soat	2	0 l/ga

Ushbu davrda kartoshkaning o'sib rivojlanish hamda ildiz qatlamining suvga bo'lgan talabi katta bo'lgani, havoning namlik darajasi past va tuproqning namligini hisobga olgan holda sug'orish vaqtini 7 soat tanlagan holda 350 m3 miqdorida suv berildi.

Dala pasporti shakilantiri jadvali (3-marta suv berish)

7-jadval

					Suv berishning vaqti 2021 yil 1 may
Linya	**Suv ochilgan vaqti**	**Suv yopilgan vaqti**	**Suv berilgan vaqt**	**Klapinlar soni**	**Berilgan o'g'it miqdori**

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

A	07:00	14:00	7 soat	2	0 l/ga
B	14:30	21:30	7 soat	2	0 l/ga

Ushbu davrda kartoshkaning o'sib rivojlanish hamda ildiz qatlamining suvga bo'lgan talabi katta emasligi, havoning namlik darajasi va tuproqning namligini hisobga olgan holda sug'orish vaqtini 7 soat tanlagan holda 350 m3 miqdorida suv berildi.

Dala pasporti shakilantiri jadvali (4-marta suv berish)

8-jadval

					Suv berishning vaqti 2021 yil 6 iyul
Linya	**Suv ochilgan vaqti**	**Suv yopilgan vaqti**	**Suv berilgan vaqt**	**Klapinlar soni**	**Berilgan o'g'it miqdori (KAC)**
A	06:00	15:00	9 soat	2	150 l/ga
B	15:30	00:30	9 soat	2	150 l/ga

O'simlikning gullashidan to palak sarg'ayishgacha bo'lgan davri. Bunda tuganaklar jadal o'sib rivojlanib shakllanadi. Ushbu davrda kartoshkaning o'sib rivojlanish hamda ildiz qatlamining suvga bo'lgan talabi kattaligi, havoning namlik darajasi va tuproqning namligini hisobga olgan holda sug'orish vaqtini 9 soat tanlagan holda 450 m3 miqdorida suv berildi.

Dala pasporti shakilantiri jadvali (5-marta suv berish)

9-jadval

					Suv berishning vaqti 2021 yil 27 may
Linya	**Suv ochilgan vaqti**	**Suv yopilgan vaqti**	**Suv berilgan vaqt**	**Klapinlar soni**	**Berilgan o'g'it miqdori**
A	07:00	15:00	8 soat	2	0 l/ga
B	15:30	23:30	8 soat	2	0 l/ga

Ushbu davrda havo haroratining keskin ko'tarilishi natijasida sug'orish davirlari oralig'i kartoshkaning suvga bo'lgan talabidan kelib chiqib belgilab olindi.

Kartoshkaning o'sib rivojlanish hamda ildiz qatlamining suvga bo'lgan talabi va bu'g'lanish miqdorining nisbatan kattaligini, havoning namlik darajasi va tuproqning namligini hisobga olgan holda sug'orish vaqtini 8 soat tanlagan holda 400 m3 miqdorida suv berildi.

Dala pasporti shakilantiri jadvali (6-marta suv berish)

10-jadval

					Suv berishning vaqti 2021 yil 4 iyun
Linya	**Suv ochilgan vaqti**	**Suv yopilgan vaqti**	**Suv berilgan vaqt**	**Klapinlar soni**	**Berilgan o'g'it miqdori (KAC)**
A	07:00	14:00	7 soat	2	200 l/ga
B	14:30	21:30	7 soat	2	200 l/ga

O'simlikning palaklarini sarg'ayishdan to tabiiy qurib tuganaklarning pishishigacha bo'lgan davri. Bunda tuganaklarning o'sishi ikkinchi davrga nisbatan sust davom etadi. Kartoshkaning o'suv davri tugap pishish davri boshlanishini hisobga olgan holda tuproqdagi namlikni kartoshka barglari orqali bug'lanishini kamaygani hisobiga beriladigan suv miqdorini 350 m3 va vaqtini 7 soat etib belgilash maqsadga muvofiqdir. Mazkur davrda o'simlikning meniral o'g'itlarga bo'lgan talabidan kelib hiqib KAC preparati 200 l/ga berildi, preparate berish jarayoni daslab 4 soat preparate qushilmagan suv, 0.5 soat preparate aralashtirilgan suv va 2.5 soat preparate qushilmagan sug'orish suvi berildi. KAC mineral o'g'itining sug'orish vaqtining o'rtasida berishdan maqsad o'g'it o'simlik ildiziga to'g'ridan to'g'ri yetib boradi va kiyingi

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

maqsad tomchilatib sug'orish lentalaridagi o'g'it to'liq lentadan chiqarib yuborish. Lentadagi o'g'itni chiqarib yuborishdan maqsad lentada qolgan o'g'it lentaning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishni oldini olish.

Dala pasporti shakilantiri jadvali (7-marta suv berish)

11-jadval

			Suv berishning vaqti 2021 yil 20 iyun		
Linya	**Suv ochilgan vaqti**	**Suv yopilgan vaqti**	**Suv berilgan vaqt**	**Klapinlar soni**	**Berilgan o'g'it miqdori**
A	07:00	13:00	6 soat	2	0
B	13:30	19:30	6 soat	2	0

Kartoshkaning o'suv davri tugap pishish davri boshlanishini hisobga olgan holda tuproqdagi namlikni kartoshka barglari orqali bug'lanishini kamaygani hisobiga beriladigan suv miqdorini 300 m3 va vaqtini 6 soat etib belgilash maqsadga muvofiqdir.

Dala pasporti shakilantiri jadvali (8-marta suv berish, texnik sug'orish)

12-jadval

			Suv berishning vaqti 2021 yil 20 iyun		
Linya	**Suv ochilgan vaqti**	**Suv yopilgan vaqti**	**Suv berilgan vaqt**	**Klapinlar soni**	**Berilgan o'g'it miqdori**
A	08:00	11:00	3 soat	2	0
B	11:30	14:30	3 soat	2	0

O'simlikning palaklarini sarg'ayishdan to tabiiy qurib tuganaklarning pishishigacha bo'lgan davri. Mazkur texnik suvni berishdan maqsad kartoshkani oziqlantirish emas balki hosilni yig'ib olish jarayonida bo'ladigan ishlarni yaxshilash (kapalkaga ziyon yetmasligi uchun yerni yumshatish, tuproqni yerik dametrli kessak bo'lishini oldini olish va chang ko'tarilishini bartaraf qilish). Suv miqdorini 150 m3 va vaqtini 3 soat etib belgilash maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, bir tomondan, mahsulot sotishdan kelgan pul tushumini ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlashga, boshqa tomondan–mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishni talab etadi.

IQTSODIY SAMARADORLIK JADVALI

3-jadval

Xarajat turi	**Xarajat miqdori, so'm**
Qilingan xarajat	24 500 000
Olingan daromad	121 450 000
Olingan sof foyda	96 950 000

XULOSALAR

1. Tog' va tog' oldi mintaqalarida kartoshka yetishtirish uchun mentaqaning iqlim sharoitidankelib chiqib kartoshka navini tanlsh katta ahamiyatga ega, biz tadqiqotimizda aynan kartoshkaning "Qizil Scarlet R_1" navini tanlab oldik.
2. Tog' va tog' oldi hududlarida havoning tarkibida tekislik hududlariga nisbatan suv miqdori yetarli bo'lganligi uchun mavsum, mobaynida sug'oriladigan suvning miqdori va

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

sug'orishlar soni tekislik va cho'l mintaqalariga nisbatan sezilarli darajada kamayganligi tadqiqot jarayonida aniqlandi.

3. Tajriba dalasidagi umumiy 2 ga maydonga ekilgan "Qizil Scarlet R1" kartoshka navini suvning tabiiy bosimidan kelib chiqib kichik konturlarga bo'lib sug'ordik va bu vaqt mobaynida 7 marta asosiy sug'orish va 1 marta texnik sug'orish tadbirlari olib borildi, mazkur sug'orish davrida 1 ga maydonga 2650 m^3 suv berildi jami tadqiqot maydonimizga 5300 m^3suv berildi, bu esa nazorat dalasiga nisbatan 37% suv tejalmqda (nazorat dalasida egatlab sug'orish orqali 1 ga maydonga kartoshka yetishtirilganda 4200-4300 m^3 suv sarflandi).
4. Nazorat dalasi egatlab sug'orilganda suvning oqimi ta'sirida tuproq tabiiy zichlashib kartoshka hosilining yeriklashuv fazasiga tuproqning zichligi salbiy ta'sir ko'rsatdi (kartoshka hosili odatiy shakilga ega bo'lmagan holatlar kuzatildi) shu bilan bir qatorda tajriba dalasida tomchilatib sug'orish amaliyoti qo'llanilganligi sababli tuproqning strukturasi o'zgarmadi natejada olingan hosilning shakli va yeriklik darajasi nazorat dalasidagi hosildan sezilarli darajada far qildi.
5. Tajriba dalasida Qizil scarlet 3600 kg/ga, odatda gektariga 2500 dan 3500 kg gacha to'g'ri keladi lekin bizning tajreba dalamizda "Bo'stonliq kartoshkachilik markazi"ning tavsiyasiga ko'ra kartoshkaning o'rtacha diametri 40-50 mm bo'lganligi sababli 3600 kg ekildi. Tajriba dalasida 1.5-jadvalda keltirilgan agrotexnik tadbirlar natijasida 1 ga maydondan 34.7 tonna kartoshka hosili yig'ib olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 4947-sonli farmoni.
2. . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 noyabrida "2018-2019 yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to'g'risida"gi 3405-sonli qarori.
3.Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 yanvardagi qaroriga muvofiq Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari er maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo'jaligi ekin erlaridan samarali foydalanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida14-sonli qarori
4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 fevraldagi PQ-3558-sonli qarorining 14-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida "Ichki bozor ehtiyojini qondirish uchun yuqori reproduksiyali urug'lik kartoshkani 2018-2022 yillarda rivojlantirish to'g'risida".
5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 maydagi PQ-4704-son "Respublikada kartoshka etishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
6. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori, 05.07.2022 yildagi 361-son qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada rivojlantirish to'g'risida
7. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori, 01.04.2020 193-son Toshkent viloyatida zamonaviy kartoshkachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida

8. A.Hamraev, " Kartoshkada sideratsiyaning ahamiyati" agro ilm – O'zbekiston qishloq xo'jaligi 3 (53), 2018 (40-41 b)

9. T.Ostonaqulov A.Hamzaev Agro ilm – O'zbekiston qishloq xo'jaligi 3 (53), 2018 (43-44 b)

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

10. A.X.Yusupov,T.Sh.Shamsiddinovlar “Mahalliy kartoshkaurug’chiligini rivojlanitirish istiqbollari” O’zbekiston qishloq xo’jaligi 2018(29-30)

11. O. Qodirxo‘jaev D. M. Yakubova Sh. Xotamov Ertagi kartoshka o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish sxemasini ta’siri

12. (VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1601) Use the "Insert Citation" button to add citations to this document.

13. T.Ostanaqulov , O.Almardanovich “Kartoshkani ikkihosilli ekin sifatidaparvarishlash” O’zbekiston qishloq xo’jaligi №12. 2018